Berkinov Bozorboy Berkinovich	
XALQARO TURIZM BOZORIDA MICE TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI	728
Fayyoza Xalimova Nafasovna	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN BIZNES JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH AMALIYOTI.....	733
Azimov Asrorjon Muzaffarjonovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANDLIKNI LEGALLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	737
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	



TIJORAT BANKLARINING BIZNES EKOTIZIMI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	742
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDIIY MAHSULOT XAJMIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI	749
Sultanov Anvar Abdullaevich	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI.....	754
Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li	
DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR	760
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT	764
Mamatkulova Shoir Djalolovna	
РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	769
Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.	
ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....	774
Айматова Фарида Хуразовна	
XORIJIY MOLIVAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNII	778
Xomidova Kamola G'olib qizi	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	788
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjapova Latofat Sardorovna	
MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVROPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLUKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinovna	



FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Islamova Dilnoza Isamidinovna

University of business and science Toshkent filiali

Iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti

E-mail: dilnozaislamova98@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston agrar sektorida fermer xo'jaliklarining iqtisodiy, ijtimoiy hamda innovatsion ahamiyati kompleks va tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, hududlar kesimidagi o'sish dinamikasi, shuningdek, biotexnologiyalar va ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini amaliyotga joriy etish jarayonidagi institutsional va moliyaviy muammolar o'rganilgan. Maqolada agrar sohaga investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy mexanizmlari, ilmiy-innovatsion ta'minot tizimini takomillashtirish hamda fermer xo'jaliklari daromadlarini oshirishning ustuvor strategik yo'nalishlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari fermer xo'jaliklari agrar sektorning tayanch tarkibiy bo'g'ini ekanligini, ularning barqaror va innovatsion rivojlanishi esa mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi hamda makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: fermer xo'jaliklari, agrar sektor, O'zbekiston, qishloq xo'jaligi, investitsiyalar, biotexnologiya, innovatsiyalar, iqtisodiy tahlil, dehqonchilik, mahsulot hajmi.

Abstract. This article presents a comprehensive and systematic analysis of the economic, social, and innovative significance of farm enterprises in the agrarian sector of Uzbekistan. The study examines the share of farm enterprises in agricultural production, regional growth dynamics, and institutional and financial challenges related to the implementation of biotechnology and scientific research into practice. The paper substantiates economic mechanisms for attracting investment into the agricultural sector, improving the scientific and innovation support system, and identifying strategic priorities for increasing farmers' income levels. The findings demonstrate that farm enterprises represent a fundamental structural component of the agrarian sector, and their sustainable and innovation-driven development is essential for ensuring national food security and macroeconomic stability.

Key words: farm enterprises, agrarian sector, Uzbekistan, agriculture, investments, biotechnology, innovations, economic analysis, crop production, production volume.

Аннотация. В статье представлен комплексный и системный анализ экономического, социального и инновационного значения фермерских хозяйств в аграрном секторе Узбекистана. В рамках исследования рассмотрены доля фермерских хозяйств в производстве сельскохозяйственной продукции, динамика роста в региональном разрезе, а также институциональные и финансовые проблемы внедрения биотехнологий и научных разработок в практическую деятельность. В работе обоснованы экономические механизмы привлечения инвестиций в аграрную сферу, направления совершенствования научно-инновационной системы и стратегические меры по повышению доходности фермерских хозяйств. Результаты исследования подтверждают, что фермерские хозяйства являются базовым структурным элементом аграрного сектора, а их устойчивое и инновационное развитие играет ключевую роль в обеспечении продовольственной безопасности и макроэкономической стабильности страны.

Ключевые слова: фермерские хозяйства, аграрный сектор, Узбекистан, сельское хозяйство, инвестиции, биотехнологии, инновации, экономический анализ, земледелие, объем продукции.

KIRISH

Mamlakatimizda agrar soha ilmiy ta'minot tizimini rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e'tibor qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi muhim ahamiyatini ko'rsatadi. Respublika hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur tizimni zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi agrar sohaning ilmiy ta'minoti mavqeini mustahkamlash va ilg'or fan yutuqlarini amaliy ishlab chiqarishga keng joriy etishdan iborat.

Zamonaviy sharoitda agrar soha nafaqat an'anaviy qishloq xo'jaligi faoliyati, balki yuqori texnologiyali, innovatsion tarmoq sifatida rivojlanmoqda. Jahonda yuz berayotgan global o'zgarishlar, iqlim o'zgarishi, aholi sonining o'sishi va resurslar cheklanganligi sharoitida agrar sohaning ilmiy ta'minotida yangi yo'nalishlar shakllanmoqda. Bu esa raqobatbardoshlikni saqlab qolish va bozorning doimiy o'zgarib borayotgan talablariga moslashish uchun fermerlar hamda davlat tomonidan innovatsiyalarni izchil joriy etishni talab etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agrar sektorni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy jihatlari xorijiy olimlardan L. Sfu, T.S. Fan, L. Chjou, J.M. Shurbax, S. Shiona, S.S. Shenoy tomonidan tadqiq qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan agrar sektorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, iqtisodiy modellashtirish va prognozlash masalalari L.V. Agarkova, I.A. Baranov, N.A. Popov, A.V. Afanaseva, M.A. Solomaxin, N.I. Grekov tomonidan o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda fermer xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyatini tahlil qilishda quyidagi uslublardan foydalanildi: qiyosiy-tahliliy yondashuv, statistik kuzatish, tanlama monitoring, korrelyatsion-regression tahlil, ko'p omilli ekonometrik modellashtirish, iqtisodiy-matematik usullar, noaniq to'plamlar nazariyasi, McKinsey & Co. metodologiyasi asosida strategik tahlil va prognozlash hamda boshqa zamonaviy tadqiqot metodlari.

TAHLIL VA NATIJALAR


Ma'lumki, fan va texnika sohasidagi o'zgarishlar tez sur'atlar bilan amalga oshmoqda. Bozor sharoitiga moslashib borayotgan, tovar mahsulotlari yetishtirayotgan fermer xo'jaliklarining qurg'oqchilik va o'simlik kasalliklariga qarshi barqarorligini ta'minlash hamda ularning raqobatbardoshligini oshirishda biologik tadqiqotlar va axborot texnologiyalaridagi innovatsion o'zgarishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada paxtachilik va dehqonchilikda keng qo'llanilayotgan biotexnologiyani misol sifatida keltirish mumkin. Biotexnologiyadan keng foydalanish, birinchidan, kasallik va zararkunandalarning hosildorlikka salbiy ta'sirini kamaytiradi; ikkinchidan, fermerlar daromadining oshishiga xizmat qiladi; uchinchidan, kimyoviy vositalardan foydalanish hajmini qisqartirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, kichik fermer xo'jaliklarida fan va texnologiya yangiliklarini joriy etishda ayrim murakkabliklar mavjudligini qayd etish mumkin. Chunki texnologik innovatsiyalar bilan bog'liq institutsional o'zgarishlarni tezkor amalga oshirish, shuningdek, turli manbalarni qamrab olgan innovatsion jarayonni kompleks tarzda tashkil etish muayyan tashkiliy va moliyaviy resurslarni talab etadi.

Agrar sohada ilmiy ta'minot tizimini investitsion asosda rivojlantirish va innovatsion jarayonlarni jadallashtirish sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlab, fermerlar daromadining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyoti asosan agrar sohaga tayanadigan mamlakatlarda global va milliy darajadagi bozor tebranishlari agrar sohada ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish jarayonini murakkablashtiradi. Bunday sharoitda bozor raqobatbardoshligini hamda aholi daromadlarini oshirishda ilmiy-tadqiqot ishlari ta'sirini kuchaytirish maqsadida davlat va xususiy sektor tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltiriladigan investitsiyalarni ko'paytirish, shuningdek, xususiy sektor, fermerlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.



1-rasm. Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi ¹

¹ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi




2024-yilning yanvar–dekabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulotlari (xizmatlari)ning umumiy hajmi 317 781,6 mlrd soʻmni tashkil etdi yoki 2020-yilning mos davriga nisbatan 104,0 %ni tashkil qildi.

Shu jumladan:

- dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik hamda ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar hajmi 302 524,9 mlrd soʻmni (103,6 %),
- oʻrmon xoʻjaligida 1 170,9 mlrd soʻmni (101,6 %),
- baliq xoʻjaligida 14 085,8 mlrd soʻmni (120,7 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida yuqori oʻsish surʼatlari Surxondaryo (104,6 %), Navoiy (104,6 %), Namangan (104,6 %) viloyatlarida, shuningdek, Qoraqalpogʻiston Respublikasida (103,7 %) va Fargʻona viloyatida (103,7 %) kuzatildi.

Qashqadaryo viloyatida (102,2 %) oʻsish surʼatlari boshqa hududlarga nisbatan biroz pastroq darajada qayd etildi.



2-rasm. Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmida hududlarning ulushi


Respublikaning qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulotlari (xizmatlari) umumiy hajmida Samarqand viloyatining ulushi 13,0 %ni tashkil etib, hududlar kesimida yetakchi oʻrinni egalladi. Toshkent va Andijon viloyatlari mos ravishda 9,6 % va 10,1 % koʻrsatkich bilan keyingi oʻrinlardan joy oldi. Eng kam ulush Qoraqalpogʻiston Respublikasi (3,9 %) hamda Sirdaryo viloyatida (3,3 %) qayd etildi.

2024-yilning yanvar–dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari umumiy hajmining oʻsishi 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,6 %ni tashkil etdi. Shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 103,1 %, chorvachilik mahsulotlari esa 104,1 %ga oʻsdi.

Xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlillar shuni koʻrsatdiki, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari umumiy hajmining 65,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga, 29,2 %i fermer xoʻjaliklariga, 4,9 %i esa qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri keladi.

Qishloq xoʻjaligi yalpi mahsulotining xoʻjaliklar toifalari boʻyicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, barcha hududlarda eng yuqori ulush dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga toʻgʻri kelishi kuzatildi. Ulushi boʻyicha ikkinchi oʻrinni egallagan fermer xoʻjaliklari hisssasi dehqon xoʻjaliklari ulushiga nisbatan sezilarli darajada pastroq ekanligi qayd etildi.

Respublikada paxtachilik yoʻnalishida koʻp yillar davomida keng koʻlamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, mamlakatda gʻallachilik dasturining ishlab chiqilishi va sugʻoriladigan yer maydonlaridan samarali foydalanishga alohida eʼtibor qaratilishi ushbu yoʻnalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirishni taqozo etdi. Mazkur maqsadda gʻallachilik instituti va uning ilmiy faoliyati tashkil etilgan.



3-rasm. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalarining hududlar kesimida taqsimlanishi.²

Agrar soha biologik jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli, ushbu tarmoqdagi texnologik investitsiyalar iqtisodiyotning boshqa yo'nalishlaridan tubdan farq qiladi. Agrar sohada olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'simliklar va uy hayvonlari genetikasini yaxshilash texnologiyalari, asosan, mazkur jarayon amalga oshirilayotgan hudud sharoitida yuqori samaradorlik beradi.

Respublikada paxtachilik yo'nalishida ko'p yillar davomida keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, mamlakatda g'allachilik dasturining ishlab chiqilishi, g'alla maydonlarini kengaytirish hamda sug'oriladigan yer maydonlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilishi natijasida ushbu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish zarurati yuzaga keldi. Shu maqsadda g'allachilik instituti va uning ilmiy faoliyati tashkil etilgan.

Respublikada o'simliklar va chorva hayvonlarini hududiy sharoitlarga moslashtirishga qaratilgan salmoqli ilmiy salohiyat mavjud bo'lib, mazkur salohiyat keyingi yillarda yanada mustahkamlanib bormoqda. Bu esa ilmiy-tadqiqot ishlarini kengroq miqyosda olib borish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy salohiyatdan foydalanish darajasini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Ilmiy salohiyatdan oqilona va tizimli foydalanish bir vaqtning o'zida bir qator muammolarni hal etishga xizmat qiladi: o'simliklarning yangi navlarini yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, chorva mollarini har bir hudud sharoitiga moslashtirish hamda ularning mahsuldorligini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, mazkur ilmiy salohiyat viloyatlarda ilmiy yechimlar va yangi texnologiyalarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investor ma'lum muddatga moddiy-texnik va intellektual resurslarni safarbar etish orqali kelgusida foyda olish hamda iqtisodiyotning turli sohalarida iqtisodiy-moliyaviy va ijtimoiy o'sishni ta'minlashga intiladi.

Qishloq xo'jaligida investitsiyalar kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosiy negizini tashkil etadi. Investor investitsiya resurslarini tarmoq yo'nalishlariga daromad (foyda) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida joylashtiradi. Ilmiy nuqtai nazardan bu jarayon investitsiya faoliyati sifatida talqin etiladi.

Qishloq xo'jaligida investitsiyaga oid qarorlar qabul qilish nafaqat faoliyat yuritayotgan korxonalar, balki o'z faoliyatini boshlayotgan fermer va tadbirkorlar uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Har qanday korxona yoki tadbirkor ma'lum darajada investitsiya faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Zero, investitsiya — bu kelgusida foyda yoki ijtimoiy samara olish maqsadida investor tomonidan qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish uchun ma'lum muddatga yo'naltirilgan moddiy-texnik va intellektual resurslar majmuasidir. Amaliy jihatdan, tadbirkorlik faoliyatida investitsiyaga oid qarorlar deyarli har kuni qabul qilinadi.

² Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi



Shu sababli tadbirkorlar va menejerlar investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq qonun-qoidalarni chuqur bilishlari zarur. Qishloq xo'jaligida investitsiyalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. Ishlab chiqarish sohasi (chorvachilik, dehqonchilik, xo'jalik subyektlari qoshidagi qayta ishlash sexlari va boshqalar);
2. Xizmat ko'rsatish sohasi (maishiy xizmatlar, mashina-traktor parklari (MTP), irrigatsiya tizimlari, mineral o'g'itlar va neft mahsulotlarini sotish shoxobchalari va boshqalar);
3. Ijtimoiy soha (kadrlar tayyorlash va malaka oshirish, tibbiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash va boshqalar).

Investitsiyalarni, avvalo, real ishlab chiqarish sektoriga ustuvor ravishda yo'naltirish, so'ngra xizmat ko'rsatish va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga jalb etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda agrar sohada ayrim tizimli masalalar mavjud bo'lib, ular tarmoqqa investitsion faollikni yanada oshirish imkoniyatlarini cheklab turmoqda. Jumladan:

- xo'jaliklarning mashina-traktor va transport vositalari bilan ta'minlanish darajasining yetarli emasligi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari va boshqa soha mahsulotlari o'rtasidagi narxlar nisbatining mutanosib emasligi;
- amortizatsiya fondidan foydalanish samaradorligining pasayishi;
- qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalanishning mavsumiy xususiyatga egaligi;
- sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi oshishi natijasida hosildorlikning pasayishi;
- qishloq xo'jaligining ayrim tarmoqlarida xarajatlar yil davomida amalga oshirilib, daromad asosan yil yakunida olinishi;
- mahsulot yetishtirish jarayonining tabiiy-iqlim sharoitlariga yuqori darajada bog'liqligi;
- sug'urta tizimining agrar soha ehtiyojlariga to'liq moslashmaganligi;
- investitsiya loyihalari bo'yicha axborotlarning yetarli darajada ommalashtirilmaganligi;
- qimmatli qog'ozlar bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- bozor infratuzilmasining shakllanish jarayonida ekanligi va boshqa omillar.

Mazkur omillarni bosqichma-bosqich bartaraf etish agrar tarmoqda investitsion muhitni yaxshilash, resurslardan samarali foydalanish hamda sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. Fermer xo'jaligi biznes-rejasini tuzish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. Toshkent, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Qishloq xo'jaligi statistik to'plami. Toshkent, 2023. 45-bet.
3. Bodie Z, Kane A., Marcus A.J. Investments. USA, 1998. 992 p.
4. Buckley J.J. The fuzzy mathematics of finance // Fuzzy Sets and Systems. 1987. 21. Pp. 257-273.
5. Hicks J.R. Value and Capital. 2nd ed. London: Oxford University Press, 1998. 332 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>